

Bosh qahramoni bo'ri bo'lgan yana qanday ertaklarni bilasiz?



Bo'ri keng cho'lda yugurib ketayotgan ekan, unga bir ot ro'para kelib qolibdi. Bo'ri tez-tez yurib, otning oldiga o'tib olibdi. Ot bo'riga yaqin borib, uni iskagan ekan, bo'ri chaqqonlik bilan otning tumshug'iga yopishib olibdi. Ot rosa unnab ko'ribdi, lekin u o'z tumshug'ini och bo'ridan ajratib ololmabdi. Keyin ot bir hiyla qilmoqchi bo'libdi.

– Ey bo'ri, nima qilmoqchisan? – debdi u.
– Men seni yemoqchiman, – debdi bo'ri.
– Unday bo'lsa, – debdi ot, – avval mening orqamga o't, otam o'lmasdan avval tuyog'imga bir nasihatnoma yozib qoldirgan edi. Shu nasihatnoma senga tegishli, sen shuni o'qib, so'ngra meni yeyaver, – debdi.

Bo'ri otning tumshug'ini bo'shatib, uning orqasiga o'tibdi. Otning tuyog'idagi xatni o'qiyman deb termulib, mahliyo bo'lib turgan vaqtida ot oyog'ini ko'tarib, bo'rining og'ziga bir tepibdi.

– Ey savodsiz, xatni o'qiyolmasang nimaga orqamga o'tding? – debdi ot.

Haqiqatdan ham bo'ri savodsiz ekan. Otning qattiq tepkisidan bo'rining og'zida bitta ham tishi qolmay sinib, ichiga ketib qolibdi. Bo'rining tumshuqlari majaqlanib, esini yo'qotib, gangib qolibdi. U anchadan keyin hushiga kelibdi va aqlini rostlab o'ziga-o'zi ta'zir berib debdi:

– Ko'rdingki xo'roz, senga kim qo'yibdi kashnich-u piyoz, ko'rdingki qo'zini, senga kim qo'yibdi konning tuzini, ko'rdingki ot, yeb yonida yot, xat bilmasang ketiga o'tib, mirza bo'lishing uyat, – deb aljirab-aljirab o'lib qolibdi. Xo'roz, qo'zi va ot dushmanidan qutulib qolishibdi.



1. Cho'lda bo'ri nimani uchratibdi?
2. Ot qanday hiyla o'ylab topibdi?
3. Ertak qanday yakun topibdi?
4. Sizningcha, bo'ri buning bunday holatga tushishiga nima sabab bo'ldi?



unnab – harakat qilib, urinib

aljiramoq – bema'ni gaplarni gapirmoq

ta'zir bermoq – aybi yoki xatosini aytib koyimoq



1. Ot va Bo'ri buning gaplarini aniqlab, rollarga bo'lib o'qing.
2. Ertakdagi voqealar ketma-ketligini qisqacha yoritib.
3. Xo'roz, qo'zi va otga ta'rif bering. Ularni nima birlashtiradi?



Bo'ri bosh qahramon bo'lgan ertakning rasmini chizing. Shu ertakning qisqacha mazmunini so'zlab bering.